

O‘ZBEKISTONDA KEKSA AVLOD VAKILLARINI QO‘LLAB-QUVVATLASHGA DOIR ISLOHOTLAR (ZOMIN TUMANI)

To‘ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi

QarDU doktoranti

Annotatsiya



Ushbu maqola O‘zbekistonda keksalarni ijtimoiy himoya qilish, ularga davlat tomonidan yaratilgan qulaylik va shart-sharoitlar Zomin tumanida amalga oshirilgan ishlar asosida yoritilgan. Maqolaga ma’lumotlar uchun arxiv hujjatlari, viloyat va tuman matbuot nashrlari hamda O‘zbekiston faxriylarini qo‘llab-quvvatlash “Nuroni” jamg‘armasi Zomin tuman bo‘limi manbalaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar. Jamg‘arma, “Keksalar haftaligi”, nuroniy, “Keksalar maslahati”, nafaqa, frontorti, ijtimoiylashuv, turizm oyligi, e-nuroni.gov.uz, platforma, insoniylik, uyushma, uch avlod uchrashuvi, internat.

Аннотация

В данной статье рассматривается социальная защита пожилых людей в Узбекистане, комфорт и условия, созданные для них государством, на основе работы, проводимой в Заминском районе. В качестве информации для статьи использованы архивные документы, областные и районные пресс-релизы, а также ресурсы Зааминского районного отделения фонда поддержки ветеранов Узбекистана «Нуроний».

Ключевые слова: Фонд, «Неделя пожилых людей», Нурони, «Советы пожилых людей», пенсия, фронторт, социализация, месяц туризма, e-nurony.gov.uz, платформа, гуманность, объединение, встреча трех поколений, школа-интернат.

Annotation

This article covers the social protection of the elderly in Uzbekistan, the comfort and conditions created for them by the state, based on the work carried out in the Zomin district. Archive documents, regional and district press releases, and resources of the Zomin district department of the "Nuroni" foundation for support of Uzbekistan's veterans were used for information for the article.

Keywords: Foundation, "Week of the Elderly", Nuroni, "Advice of the Elderly", pension, frontort, socialization, tourism month, e-nuroni.gov.uz, platform, humanity, association, meeting of three generations, boarding school.

O‘zbek xalqining bir qancha o‘ziga xos qadriyatlari borki, asrlar osha, ularni xalqlararo namuna sifatida ko‘rsatish mumkin. Jumladan, ijtimoiy siyosatimizning bir qismi hisoblanmish, inson qadrini ulug‘lash, ayniqsa keksa avlod vakillarini e‘zozlash, paravarishga muhtoj, yolg‘iz qariyalarga muruvvat ko‘rsatish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, uzoq yillardan buyon an‘anaga aylanib kelganligi tariximizdan ma‘lum. O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan ushbu masalaga alohida e‘tibor qaratildi. Bu borada davlat rahbari va hukumatning qator qaror hujjatlari qabul qilindi. Ushbu qonun hujjatlar ijrosini ta‘minlash maqsadida, 1992-yil 27-oktabrdagi Zomin tuman hokimining 239k-sonli “Nafaqa olmaydigan yakka yashaydigan kishilarga har oylik nafaqa tayinlash haqida”⁵⁰gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq, nafaqa olmaydigan yolg‘iz qariyalarga, mahalliy budjet hisobidan nafaqa tayinlash bo‘yicha, tuman ijtimoiy ta‘minot bo‘limi boshlig‘iga vazifa yuklatilib, nafaqa belgilanadigan keksalar ro‘yxati shallantirildi. Ushbu qaror ijrosi, Zomin tumanining chekka qishloqlariga qadar, yolg‘iz yashovchi, muhtojligi mavjud qariyalarni qo‘llab-quvvatlashning amaliy natijasi bo‘lib xizmat qildi.

1999-yil 7-dekabrdagi “2000-2005-yillar yolg‘iz keksalarni, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”⁵¹gi

⁵⁰ ShRTDA, M- 5-fond, ro‘yxat-1, yig‘ma jild-21, varaq-20-21.

⁵¹O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2000-2005 yillar yolg‘iz keksalarni, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori//lex.uz.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 520-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash, shuningdek, tumandagi yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni, ularning ijtimoiy ta'minot va uy-joy maishiy sharoitlarini yaxshilash yuzasidan ehtiyojlarini yanada to'liq qondirish maqsadida, Zomin tuman hokimining 10-sonli qarori⁵² qabul qilindi. Qarorga ko'ra, tuman hududidagi, yolg'iz keksalar ro'yxati qayta ko'rib chiqilishi, ularni homiy tashkilotlarga birlashtirish, shakllantirilgan jadvalga ko'ra, ularning barchasini, bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazish va ular uchun zaruriy dori-darmon vositalari bilan ta'minlash belgilandi. Bundan tashqari, yolg'iz, qarovga muhtoj qariyalarning holidan uzluksiz ravishda xabar olish, kerakli kiyim-kechak va oziq-ovqatlar bilan ta'minlash hamda jamoat transportidan bepul foydalanish imkoniyatlari berildi. Yuqorida sanab o'tilgan vazifalar ijrosini ta'minlash, bugungi kunga qadar, tumanda faoliyat yuritib kelgan "Nuroni" jamg'armasi tuzilmasiga kiritilgan bo'lib, 2001-yil 28-fevraldagi Zomin tumani hokimining "Tumanda faoliyat ko'rsatayotgan jamg'armalar va jamiyatlarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"⁵³ 109k-sonli qarori qabul qilindi. Jamg'armalar, xususan "Nuroni" jamg'armasini iqtisodiy barqarorligini yaxshilash, unga homiy tashkilotlarni birlashtirish, insonparvarlik omillaridan kelib chiqib, tumandagi "Paxtabank"(Alibekov U), "Tadbirkorbank"(Tangirov N) va "Xalq banki" (Eshonqulov A) tuman bo'limlariga homiylik tomonidan ajratiladigan ixtiyoriy mablag'larni jamg'arma hisob raqamiga o'z vaqtida o'tkazib berish vazifasi yuklandi. Qaror ilovasiga ko'ra, "Nuroni" jamg'armasi uchun, o'sha paytda, tuman miqyosidagi yirik 5 ta homiy tashkilot, 7 nafar tadbirkor, 10 ta femer xo'jaligi ixtiyoriy holatda o'z homiyliklarini olib bordi. Bu kabi tashabbuslar esa, o'zbek xalqining insoniy mehr-muruvvatligini, nuroniylarga bo'lgan chuqur hurmat va ehtiromini, shuningdek, ularni e'zozlash va har tomonlama yordam ko'rsatishdagi amaliy misollaridan biri demakdir.

2015-yil yurtimizda "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilinishi nuroniylar uchun e'tiborning yana bir ko'rinishi bo'ldi. Respublika bo'ylab belgilangan vazifalar, viloyat va tumanlarda ham izchillik bilan boshlab yuborildi. "Keksalarni e'zozlash yili" davlat dasturi to'g'risidagi PQ-2302-sonli va Jizzax viloyat hokimining 2015-yil 24-fevraldagi 68-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida, Zomin tuman hokimining qarori qabul qilindi.⁵⁴ Unga ko'ra, dasturning tumanda yuqori natija bilan ishlashini ta'minlash, jamiyatning ma'naviy ildizlari bo'lgan nuroniylarni ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy qo'llab-quvvatlash masalalari ustuvor vazifa etib belgilanib, ushbu yil davomida topshiriqlar ijrosi nazorat qilib borilgan. "Nuroni" jamg'armasini tuzishdan maqsad ham, keksalarga to'laqonli ko'mak berish, ularni jamiyatning ma'naviy-axloqiy negizi ekanligi ta'kidlanib, qariyalarning ibratli hayot yo'lini yoshlarga namuna sifatida ko'rsatish, ularning barchasini hurmat-izzat qilish an'ananasini avloddan-avlodga qoldirish bosh maqsaddir.

Tizimdagi ishlarning uzviy davomi sifatida, 2021-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston faxriylarini qo'llab-quvvatlash "Nuroni" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁵⁵gi Farmoniga muvofiq, keksa avlod vakillarini davlat tomonidan qo'llash samaradorligini oshirish, mamalakat ijtimoiy-siyosiy hayotida ularning to'liq ishtirok etish huquqini ta'minlash, jamg'armaning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash, maxsus bino ajratish yoki qurilishini ta'minlash, mazkur bino ichida kitob fondiga boy kutubxona zalini tashkil etish, keksalar uchun maxsus trenajyorlar bilan jihozlangan davolash va jismoniy tarbiya zallari, shaxmat xonalari, tibbiyot va oshxonalar bilan ta'minlash belgilandi. 1941-1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini o'z tizimidagi sanatoriyalarda sog'lomlashtirishga har yili yo'naltirish tashabbuslari, ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va ishlab chiqarish sohalarida uzoq yillik halol mehnati uchun mehnatkashlarga va jamiyatda namunali

⁵² ShRTDA, M- 7-fond, ro'yxat-14, yig'ma jild-9, varaq-14-15.

⁵³ ShRTDA, M- 440-fond, ro'yxat-10, yig'ma jild-12, varaq-35-36.

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 18-fevraldagi PQ-2302-sonli va viloyat hokimining 2015-yil 24-fevraldagi 68-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida Zomin tumani hokimining qarori. Sharq tonggi gazetasi.2015-yil. 11-soni.

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston faxriylarini qo'llab-quvvatlash "Nuroni" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni//lex.uz.

farzandlarni tarbiya qilib voyaga yetkazgan sadoqatli onalarga “Mehnat faxriysi” ko’krak nishoni(I,II,III darajali) ta’sis etilishi, tumanda ushbu nishon bilan taqdirlangan shaxslar haqidagi qisqacha biografik ma’lumotlarni jamlagan “Bizning faxriylarimiz” nomli kitob-fotoalbumini yuritish va uni har yili yangilab borish vazifalari yuklatildi. Qaror ijrosining Zomin tumanida bajarilishi belgilangan muddatda, yuqori samaradorlik ila olib borildi. Avvalo, O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniylar” jamg‘armasi Zomin tuman bo‘limi to‘g‘risidagi Nizomi qabul qilindi⁵⁶. Nizom rasman, 2023-yil 19-iyulda tasdiqlanib, bo‘limning asosiy maqsadi keksalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab, ularni amaliy yordam ko‘rsatish bo‘lsa, vazifalari esa, nuroniylar turmush darajasini oshirish va bu sohada davlat siyosatining muhim yo‘nalishlarini amalga oshirishda davlatga ko‘maklashish, turli madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etgan holda keksa avlod vakillarini taklif etish, “Hech kim mehr va e’tibordan chetda qolmasin” shiori ostida ijtimoiy himoyaga muhtoj nuroniylar holidan doimiy xabardor bo‘lish, hamda ularga ijtimoiy himoya dasturlari doirasida davlat xizmatlari ko‘rsatilishini ta‘minlashga yordam berish, shuningdek mahallalarda yoshlarning tarbiyasi va axloqida bo‘lgan ijobiy o‘zgarishlardagi ta’siri va hissasi uchun Bo‘lim mablag‘lari hisobidan moddiy rag‘batlantirish bu orqali ularni ruhlantirish, va yana “Keksalar maslahati” guruh a‘zolarini, “Bir nuroniylar o‘n yoshga ma’sul” tamoyilini mahallalarda qaror toptirishdagi tashabbusi uchun ham ularni rag‘batlantirish vazifalari belgilab berildi. Bundan tashqari jamg‘armaning Zomin tuman bo‘limi o‘z majburiyat va huquqlariga ham ega tashkilot hisoblanadi. Bo‘lim o‘z faoliyatiga taalluqli masala va mavzular yuzasidan turli konfrensiya va yig‘ilishlar o‘tkazish, unga nuroniylar va oddiy xalq vakillarini taklif etish va ularning ixtiyoriy ishtirokiga ruxsat berish kabi huquqlarga egadir. Bo‘lim, Zomin tumanida yashovchi nuroniylar to‘g‘risidagi ma’lumotnoma ro‘yxat ko‘rinishida tuzilgan bo‘lib, 2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, tumanda yoshga doir nafaqa oluvchilar soni – 19715 nafar, jami nuroniylar soni – 12618 nafar, shundan Ulug‘ Vatan urushi qatnashchilari -1 nafar, (taqqoslash uchun, 2022-yilga qadar tumanda 4 nafar urush qatnashchisi bo‘lgan, ulardan Erkaboy ota Qoraboyev esdalik medal bilan, Zomin tumanining Xulkar qishlog‘ida yashagan Saydali bobo Eshonqulov esa “G‘alabaniy 70 yilligi” medali bilan taqdirlangan⁵⁷) frontorti faxriylari soni – 41 nafarni tashkil etsa, bulardan 23 nafari xotin-qizlarni tashkil etadi. Tumanda 100 yoshdan oshganlar soni – 1 nafar, yolg‘iz yashaydigan, ya’ni o‘zgarlar parvarishiga muhtoj qariyalar soni esa, 65 nafarni tashkil etadi. Ehtiyojmand keksalar – 108 nafar, “Keksalar maslahati” guruhi – 39 nafar, a‘zolari esa - 585 nafar, tumanda notinch deya topilgan oilalar soni 36 nafarni tashkil etib, ularga 72 nafar nuroniylar maslahat va nasihat uchun birlashtirilgan. “Bir nuroniylar 10 nafar yosh” loyihasi doirasida, tumandagi 309 nafar yoshlarga 40 nafar keksa avlod vakillari birlashtirilgan. Nuroniylar, yoshlarga o‘zining hayot yo‘lidagi boy tajribasi, ko‘nikmalari bilan o‘zlarining maslahat va o‘g‘itlarini berib, tumanda ijobiy natijalarga erishish holatlari o‘smoqda.⁵⁸

“Nuroniylar” jamg‘armasining Zomin tuman bo‘limi hozirgi kunga qadar ko‘plab madaniy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazib kelmoqda. Ayniqsa, bu tadbirlar ko‘lami va saviyasi yil sayin o‘sib bormoqda hamda tadbirlarning rejalari tizimli tuzilganligi va nuroniylar uchun oylar kesimida maxsus imkoniyatlar yaratilganligi e’tiborlidir. Jumladan, har yili avgust oyi qariyalar uchun tibbiy xizmat oyligi hisoblanib, bu oy davomida ular zaruriy tibbiy xizmatlardan bepul foydalanishlari mumkin, ehtiyojmandlarga dori-darmon olish imkoniyatlari ham taqdim etiladi. Oktabr oyining 1-sanasi to 10-sanasiga qadar, “Keksalar haftaligi” doirasidagi tadbirlar tashkil etiladi. Haftalik mobaynida “Nuroniylar” jamg‘armasining Jizzax viloyati bo‘limi rahbariyati tomonidan, Zomin tumanida joylashgan “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan ayollar internat-uyida “Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz” shiori ostidagi ma’naviy-marifiy tadbir shular

⁵⁶ O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniylar” jamg‘armasi Zomin tuman bo‘limi to‘g‘risidagi nizom.

⁵⁷ Faxriylarga ehtirom. Sharq tonggi gazetasi. 2015-yil. 19-soni.

⁵⁸ O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniylar” jamg‘armasi Zomin tuman bo‘limi tomonidan tayyorlangan tuman nuroniylari to‘g‘risidagi ma’lumotnoma. 2024-yil. 1-aprel.

jumlasidandir. Tadbirda soha mutaxassislari va bo‘lim raisi, davlat qaramog‘iga olingan keksa avlodni tibbiy va ijtimoiy qo‘llash masalalariga alohida to‘xtaldi.⁵⁹ Va bu kabi tadbirlar har yili, uzluksiz holatda o‘tkazib, nazariy va amaliy yordamlar berilmoqda. Noyabr oyi esa nuroniylar uchun “Turizm oyligi” hisoblanadi. Bunda ular, O‘zbekistonning so‘lim go‘shalari, qadimiy va navqiron shaharlariga sayohat qilishlari mumkin. Sayohatni tashkil etish va kerakli barcha vositalar bo‘lim tomonidan olib boriladi. Maqsad – nuroniylarimiz kayfiyatini ko‘tarish, sayohatlardan zavqlanish orqali ularning ruhiy va jismoniy salomatligini yaxshilashdan iborat. Hozirgi kunda jamg‘armaning Zomin tuman bo‘limida, ikki nafar xodim: bo‘lim raisi va yetakchi mutaxassis faoliyat yuritmoqda.⁶⁰ Bo‘lim zamonaviy jihozlangan bino, kutubxona, davolash va jismoniy zallariga ega, tuman keksa aholisi uchun barcha kerakli shart-sharoitlar yaratilgan. Yana shuni alohida ta’kidlash kerakki, bo‘lim tomonidan yuqori saviyaga ega tadbirlar hozirgacha o‘tkazib kelinmoqda. Bu tadbirlar ko‘lami, belgilangan nuroniylar oyligidan tashqari, bayramlar arafasida yanada uyushqoqlik bilan tashkil etiladi. Va bu tashkiliy masalalarda nafaqat bo‘lim a‘zolari, balki davlat organlari xodimlari va jamoatchilik vakillarining faol tashabbuskorligi tahsinga loyiq. Masalan, 2024-yil may oyining dastlabki kunlarida, “9-may – Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan, Jizzax viloyati prokurori Islomjon Ergashxo‘jayev, Zomin tumani Duoba qishloq fuqarolar yig‘inida istiqomat qiluvchi, ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Xolboy Ravshanov xonadonida bo‘lib, urush faxriysiga davlatimiz rahbarining tabrigini o‘qib eshittirdi, hamda Sh.Mirziyoyev farmoniga muvofiq, Xolboy ota Ravshanovga 20 mln. so‘m miqdorda pul mukofotini topshirdi.⁶¹ Bo‘lim tomonidan tashkil etilib kelinayotgan “Uch avlod uchrashuvlari” esa, o‘rta va yosh avlod vakillari uchun, amaliy ibrat darslari vazifasini o‘tamoqda. Tizimdagi so‘nggi islohotlar natijasi o‘laroq – bugungi raqamlashgan davrda sohaga ham yangiliklar kiritib borilmoqda. Xususan, e-nuroniyy.gov.uz elektron platformasi va yagona elektron bazasi yaratilib, unga murojaatlar bo‘limi doimiy ochiq holatda ishlamoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, jamiyatimizning suyanchi, uzoq yillik tajriba egalari, turmushning ko‘plab sohalorida halol mehnat qilgan mehnatkashlar, urush va frontorti faxriylari, bir so‘z bilan aytganda – keksa avlod vakillarining namunali hayot yo‘li, pand-nasihatlari o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun ibrat maktabidir. Chunki, ular – tirik tarix demakdir. Jamiyat taraqqiyotining ma’naviy-marifiy jarayonlarida ularning hissasi beqiyos. Ularga alohida e’tiborning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi esa – xalqimizga xos qadriyatlarining siyosiy jarayonlar bilan uyg‘unligini aks ettiradi. Haqiqatda, keksalarni e’zozlash va ehtirom ko‘rsatish – ulug‘ insoniy fazilatlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ShRTDA, M- 5-fond, ro‘yxat-1, yig‘ma jild-21, varaq-20-21.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2000-2005 yillar yolg‘iz keksalarni, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori//lex.uz.
3. ShRTDA, M- 7-fond, ro‘yxat-14, yig‘ma jild-9, varaq-14-15.
4. ShRTDA, M- 440-fond, ro‘yxat-10, yig‘ma jild-12, varaq-35-36.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 18-fevraldagi PQ-2302-sonli va viloyat hokimining 2015-yil 24-fevraldagi 68-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida Zomin tumani hokimining qarori. Sharq tonggi gazetasi. 2015-yil. 11-soni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston faxriylarini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniyy” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni//lex.uz.
7. O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash”Nuroniyy” jamg‘armasi Zomin tuman bo‘limi to‘g‘risidagi nizom.

⁵⁹ Jizzax: Zominda ayollar internet-uyi davolanuvchilari yo‘qlandi. Nuroniyy gazetasi. 41-soni.

⁶⁰ Alimova Saodat Arabovna ma’lumotnomasi. “Nuroniyy” jamg‘armasi Zomin tuman bo‘limi, yetakchi mutaxassisi. 2024-yil. 11-sentabr.

⁶¹ Oqqulov O‘rol. Nuroniyy” jamg‘armasi Zomin tuman bo‘limi raisi. Bo‘lim raisining ma’lumotnomasi. 2024-yil.May.

8. Faxriylarga ehtirom. Sharq tonggi gazetasi. 2015-yil. 19-soni.
9. O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasi Zomin tuman bo'limi tomonidan tayyorlangan tuman nuroniylari to'g'risidagi ma'lumotnoma. 2024-yil. 1-aprel.
10. Jizzax: Zominda ayollar internat-uyi davolanuvchilari yo'qlandi. Nuroniylar gazetasi. 41-soni.
11. Alimova Saodat Arabovna ma'lumotnomasi. "Nuroniylar" jamg'armasi Zomin tuman bo'limi, yetakchi mutaxassisi. 2024-yil. 11-sentabr.
12. Oqqulov O'rol. Nuroniylar jamg'armasi Zomin tuman bo'limi raisi. Bo'lim raisining ma'lumotnomasi. 2024-yil. may.

TARIX FANINI O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDOSHUV. Hoshimov To'liq Ro'ziyevich, Jizzax Sambhram universiteti NTM o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarix darslarini o'qitishda kompetensiyaviy yondoshuv va uning ahamiyati ochib berilgan.

Annotation

This article reveals the competence approach and its importance in teaching history.

Аннотация

В данной статье раскрывается компетентностный подход и его значение в преподавании истории.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez surhatlarda jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayoniga umumta'lim fanlarini o'qitishning printsiplial yangi metodologiyasi sifatida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni joriy etish siyosiy, umumdavlat va didaktik ahamiyatga ega bo'lgan hodisa hisoblanadi.

Albatta, eng avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi bugungi kun talabi, jamiyat ehtiyoji, fan va texnikaning rivojlanish tendensiyalari asosida ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga bog'liq.

XXI asrda dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish masalasiga asosiy ehtibor qaratilmoqda. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim hisoblanadi.

Dunyoning rivojlangan davlatlarining davlat ta'lim standartlaridagi tayanch kompetensiyalarning tahlili bugungi kunda mazkur masalaga qarash va yondashuvlar har mamlakatning ta'limdan ko'zlagan maqsadi, imkoniyati va shart-sharoitlaridan kelib chiqqanligini ko'rsatadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni alohida shakllantirishni emas, balki ularni kompleks ravishda egallashni taqozo etadi. Shunga ko'ra, o'qitish metodlari ham o'zgaradi.

"Kompetensiya", "kompetentlilik" tushunchalari tilshunoslikda ilk bor XX asr o'rtalarida N.Xomskiy tomonidan qo'llangan bo'lib, tilni ishlatish jarayonida — faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida, ta'lim sohasida esa "kompetensiyaviy yondashuv" sifatida talqin etilgan bo'lib, ta'limda natijaviylikni ko'rsatuvchi omillar sifatida qayd etilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida kompetensiya so'zi quyidagicha izohlangan:

—Kompetensiya – (lot. sompetere – layoqatli, munosib bo'lmoq). 1) Muayyan tashkilot yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat. 2) Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasil.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatini

